



Sevara BOTIROVA,
NamDPI falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasini mudiri, PhD, dotsent
E-mail: gulomjonovandu@gmail.com

Namangan davlat universiteti dotsenti, PhD N.Kodirov taqrizi asosida

MULOQOT ME'ZONLARINI ANGLASHDA GERMENEVTIK-GNOSELOGIK FALSAFANING O'RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada muloqot me'zonlarini anglashda germevnetik va gnoseologik falsafaning o'rni tahlil qilinadi. Muloqot, insonlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlovchi muhim jarayon sifatida germevnetik nazariyalar orqali chuqurroq anglanadi. Maqola, germevnetik falsafaning asosiy tamoyillari va ularning muloqot jarayonlaridagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Muloqot, germevnetik falsafa, tafakkur, muloqot me'zonlari, insoniy aloqalar, ta'lim, tushunish, interpretatsiya.

THE ROLE OF HERMENEUTIC-GNOSEOLOGICAL PHILOSOPHY IN UNDERSTANDING THE CRITERIA OF COMMUNICATION

Annotation

This article analyzes the role of hermeneutic and epistemological philosophy in understanding the criteria of communication and understanding. Communication, as an important process that strengthens relationships between people, is understood more deeply through hermeneutic theories. The article shows the main principles of hermeneutic philosophy and their importance in communication processes.

Key words: Communication, hermeneutic-эпистемологический philosophy, thought, criteria for communication, human relationships, education, understanding, interpretation.

РОЛЬ ГЕРМЕНЕВТИКО-ГНОСЕЛОГИЧЕСКОЙ ФИЛОСОФИИ В ПОНИМАНИИ КРИТЕРИЕВ КОММУНИКАЦИИ

Аннотация

В данной статье анализируется роль герменевтической и эпистемологической философии в понимании критериев коммуникации и понимания. Коммуникация, как важный процесс, укрепляющий отношения между людьми, глубже понимается через герменевтические теории. В статье показаны основные принципы герменевтической философии и их значение в коммуникационных процессах.

Ключевые слова: Коммуникация, герменевтическая философия, мышление, критерии коммуникации, человеческие отношения, образование, понимание, интерпретация.

Kirish. Muloqot nafaqat ma'lumot almashinuvi, balki hissiy va ijtimoiy aloqalarni ham o'z ichiga oladi. Muloqot me'zonlari esa bu jarayonning samaradorligini belgilovchi omillardir. Germevnetik falsafa, asosan, tushunish va interpretatsiya jarayonlariga qaratilgan bo'lib, muloqotning chuqurroq anglanishiga yordam beradi. Ushbu maqolada germevnetik falsafaning muloqot me'zonlari va tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Maqsad, germevnetik va gnoseologik yondashuv orqali muloqot jarayonlarini yaxshilash va tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsatishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu tadqiqotda manba-tahlili, taqqoslash, tizimli tahlil tadqiqot metodologiyalari qo'llanildi. Asosiy e'tibor germevnetik va gnoseologik yondashuvga qaratiladi, bu esa muloqot va tafakkur jarayonlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, adabiyotlarni tahlil qilish orqali germevnetik falsafaning asosiy tamoyillari va ularning amaliy ahamiyati o'rganildi. Tadqiqot natijalari, germevnetik yondashuv orqali muloqot jarayonlarini yaxshilash va tafakkurni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni ko'rsatadi.

Germevnetik falsafa asosan Friedrich Shleyermaxer, Vilgelm Diltey, Martin Haydegger va Hans-Georg Gadamer kabi faylasuflar tomonidan rivojlantirilgan. Ularning asarlarida tushunish jarayoni, muloqot va tafakkurning o'zaro aloqasi keng yoritilgan. Gadamer "Haqiqiylik va uslub" asarida, muloqot va tafakkurning bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar ekanligini ko'rsatadi. Ushbu adabiyotlar

germevnetik falsafaning muloqot me'zonlari va tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

S.D.Narkulovning "Ong va fuqarolik jamiyati o'zaro dialektik aloqadorlikda jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini belgilaydi"[1] degan fikri bu jarayonning ijtimoiy mohiyatini ochib beradi. Bu yondashuv til va tafakkurning jamiyatdagi birligiga metodologik asos bo'la oladi: inson tafakkuri individual holatda mavjud bo'la olmasligi singari, til ham ijtimoiy mavjudlikdan tashqarida yashay olmaydi. Narkulov tafakkurni "ijtimoiy ongning faol shakli" sifatida talqin etar ekan, tilda mujassam bo'lgan ijtimoiy tajribaning insonga qayta ta'sirini ham ko'rsatadi. Tanqidiy nuqtai nazardan qaraganda, muallifning fikrida tafakkurning gnoseologik tabiati yetarlicha ochilmagan, biroq u tilning jamiyatdagi kommunikativ funksiyasini falsafiy tahlilga kiritgani bilan dolzarbdir.

A.A.Egamberdiyev "Tafakkurning innovatsion shakli inson kapitalining namoyon bo'lish shakli sifatida shaxsning ehtiyoj, maqsad va harakat kabi praktsiologik xususiyatlari bilan bog'liqdir"[2] deb yozadi. Bu yondashuvda tafakkur inson faoliyatining vositasi sifatida, til esa shu faoliyatni jamiyatga uzatish mexanizmi sifatida talqin etiladi. Muallifning nazariyasida tilning innovatsion tafakkurdagi roli pragmatik asosda ko'rsatilgan bo'lsa-da, u bu jarayonning ontologik ildizlariga yetarli darajada to'xtalmaydi. Biroq uning tilni "ijtimoiy o'zgarishlar va tafakkur yangilanishi vositasi" sifatida baholashi ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

D.H.Sunatov esa "Madaniy makon - inson tafakkurining estetik ko'rinishi, til esa shu makonning ramzidir" deb yozadi. Bu fikr tilda mujassam bo'lgan madaniy kodni falsafiy talqin etadi. Muallif madaniyatni "til orqali jamiyat tafakkurining estetik ifodasi" sifatida ko'radi. Uning fikricha, "madaniy makonda axloqiy ong va tafakkur birligi tilning ijtimoiy mohiyatini belgilaydi" [3]. Bu yondashuvda til faqat aloqa vositasi emas, balki ma'naviy yaratuvchanlik maydoni sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, Sunatov tilda mujassam madaniy semantika orqali tafakkurning ijtimoiy-estetik mohiyatini ochgan, bu esa til va tafakkur dialektikasining aksiologik asosini belgilaydi.

Til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro munosabatni ijtimoiy falsafaning asosiy kategoriya - ijtimoiy ong bilan bog'lagan barcha mualliflar bir jihatdan yakdildir: insonning ijtimoiy mavjudligi til orqali ifodalangani, tafakkur orqali esa anglanadi. Til - ijtimoiy tafakkurning tashqi shakli, tafakkur esa til orqali jamiyatni anglash va o'zgartirish qudratidir. Bu birlikda til kommunikatsiya, tafakkur esa yaratuvchanlik funksiyasini bajaradi. Shunday qilib, til va tafakkur insonning ijtimoiy mavjudligida borliqni bilish, idrok etish va qayta yaratishning uzviy vositasidir.

Til va tafakkur o'rtasidagi dialektik munosabat eng avvalo L. Vygotskiy tomonidan ilmiy asosda ishlab chiqilgan bo'lib, u "tafakkur tildan tashqarida shakllanmaydi, chunki til - bu ijtimoiy ongning faol shaklidir" deb yozadi[4]. Vygotskiyning fikricha, inson tafakkurining tabiati "so'zda" ijtimoiylashadi, ya'ni til fikrni tashqi shaklga keltiradi, biroq shu jarayonning o'zida fikr ham tildan yangi ma'nolar yaratish orqali o'tadi. U shunday deydi: "So'z - bu fikrning jismoniylik shakli, u orqali inson ongining ijtimoiy mohiyati namoyon bo'ladi". Bu yondashuvda til nafaqat fikrni ifodalash vositasi, balki uning mavjud bo'lish sharti sifatida qaraladi. Ernst Kassirer esa tilni "ramzlar olami" doirasida talqin etadi. Unga ko'ra, "til insonning ramziy faoliyatining markazida turadi, chunki tafakkurning o'zi ramziy struktura orqali voqelikka aylanadi" [5].

Muhokama. Germenevtik falsafiy qarashlarda muloqot meyorlarini tadqiq etuvchi ilmiy izlanishlar yurtimiz va jahon miqyosida o'rganilgan. Til va tafakkur bir-birini inkor etmaydigan, balki bir-birini to'ldiruvchi dialektik birlik bo'lib, ular ijtimoiy mavjudlikning gnoseologik mexanizmini tashkil etadi. Til - tafakkurning moddiy shakli, tafakkur esa tilning ma'naviy mohiyatidir. Inson o'z fikrini tildan tashqarida ifoda eta olmaydi, shu bois tafakkur tildan tashqarida mavjud bo'lmaydi; til esa tafakkur mavjud bo'lgan jamiyatda ijtimoiy muomala vositasi sifatida yashaydi.

Kassirer uchun til bu "madaniy tafakkurning organonidir", ya'ni insonning ijtimoiy va madaniy mavjudligi uchun zarur bo'lgan ma'no tizimini yaratadi. Biroq uning yondashuvi Vygotskiydan farqli ravishda, tilni ijtimoiy aloqa vositasi emas, balki "ruhiy madaniyatning o'zini quruvchi struktura" sifatida ko'radi. Shu bois, Kassirer konsepsiyasi tildagi ijtimoiy harakatchilikni yetarlicha ochmaydi, u tilni individual ongning ramziy faoliyatiga haddan ortiq bog'lab qo'yadi.

Xaydegger tilning ontologik mohiyatini "borliqning uyi" konsepsiyasi orqali ifodalaydi. Xaydegger fikricha, til tafakkurga bo'ysunmaydi, aksincha, tafakkur tilda shakllanadi, shuning uchun tilning mohiyati semantik emas, ontologikdir. Unga ko'ra, "til nafaqat fikrni bildiradi, balki mavjudlikning o'zini dunyoga olib chiqadi"[6]. Biroq bu yondashuv tilning ijtimoiy vazifasini emas, uning metafizik mohiyatini markazga qo'yadi, shu sababli tilning jamiyatdagi kommunikativ funksiyasi Xaydegger talqinida yetarli darajada yoritilmagan.

Noam Chomskiy tildagi ijtimoiylik va tafakkurdagi universal tuzilmani sintaktik darajada asoslaydi. U "tilning universalligi tafakkurning umumiy mexanizmlariga asoslangan, ya'ni inson tafakkuri grammatik tuzilmalarning

ichki tizimi orqali ishlaydi" deb yozadi[7]. Chomskiy uchun til bu "ijodiy generativ mexanizm", u orqali inson cheklangan belgilar tizimidan cheksiz ma'nolar hosil qiladi. Biroq uning lingvistik modeli tilni ijtimoiy muloqot vositasi sifatida emas, balki kognitiv jarayon sifatida tushuntiradi, shu bois u Vygotskiy ilgari surgan "ijtimoiy ong" paradigmasiga nisbatan individualistik yondashuvni taklif etadi.

Natijalar. Birinchidan, nutq madaniyati ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan insoniyat madaniyatining eng muhim shakli sifatida talqin qilinadi. U inson tafakkurining tashqi ifodasi, jamiyat ongining aks-sadosi, ma'naviyatning jonli ifoda vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Nutq - bu insonning nafaqat o'z fikrini ifoda etish, balki o'zini anglash, o'zligini namoyon etish, jamiyat bilan ma'naviy aloqada bo'lish shaklidir. Shu ma'noda, nutq madaniyati insonning ijtimoiy mavjudligini tashkil etuvchi ichki mexanizm bo'lib, jamiyatning ma'naviy darajasi, estetik didi va madaniy tafakkuri bilan bevosita bog'liqdir.

Ikkinchidan, nutq va madaniyat o'rtasidagi ijtimoiy aloqadorlik insonning ijtimoiy mohiyatini tushuntiruvchi asosiy falsafiy masalalardan biridir. Nutq madaniyatni tashuvchi, madaniyat esa nutqning ruhiy manbai sifatida amal qiladi. Har bir madaniyat o'z tilining ruhiy imkoniyatlarida yashaydi va o'z tili orqali namoyon bo'ladi. Til orqali madaniyat o'zini tahlil qiladi, o'z tarixini eslaydi va o'zini qayta yaratadi. Shu bois nutqning darajasi jamiyatning madaniy salohiyatini ifodalaydi, madaniyat esa nutqning ichki ma'no chegaralarini belgilaydi.

Uchinchidan, muloqot odobi ijtimoiy uyg'unlikning axloqiy va ma'naviy mexanizmini ifodalaydi. U insonlar o'rtasidagi munosabatlarda hurmat, bag'rikenglik, o'zaro tushunish va ruhiy uyg'unlikni ta'minlaydigan falsafiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Muloqot odobi ijtimoiy mavjudlikning shakli bo'lib, u jamiyat a'zolarining bir-biriga nisbatan ma'naviy mas'uliyatini, axloqiy meyorlarini va ijtimoiy muvozanatini ifoda etadi. Inson o'z nutqi, xulqi va munosabati orqali jamiyatdagi ma'naviy muhitni shakllantiradi.

To'rtinchidan, til, axloq va madaniy ongning o'zaro uyg'unligi jamiyatning ichki ma'naviy muvozanatini belgilaydi. Bu uchlik bir-biridan ajralmas holda ijtimoiy tizimning ruhiy poydevorini tashkil etadi. Til - bu madaniyatning ifoda shakli, axloq - uning ma'naviy mezon, madaniy ong esa ularning bir butunlikdagi falsafiy aksidir. Inson o'z tilida madaniyatni ifoda etar ekan, axloqiy meyorlar orqali uni tartibga soladi, madaniy ong orqali esa unga ijtimoiy ma'no bag'ishlaydi.

Beshinchidan, nutq madaniyati va muloqot odobi insonning ijtimoiy tabiatidagi ongning faolligini ifodalaydi. Inson jamiyatda muloqot qilgan sari o'zini ijtimoiy mavjudlik sifatida angelaydi, nutq orqali esa bu anglashni ifoda etadi. Shu jihatdan nutq madaniyati insonning ijtimoiylikdagi o'zini yaratuvchan mavjudot sifatidagi mohiyatini ochadi. U inson tafakkurining madaniy shakli bo'lib, ijtimoiy ongda axloqiy uyg'unlikni mustahkamlaydi.

Oltinchidan, ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan nutq, muloqot, axloq va madaniy ongning o'zaro birligi jamiyatning ma'naviy barqarorligini belgilovchi umumiy ontologik tizimni tashkil etadi. Bu tizimda inson so'z orqali ma'no yaratadi, muloqot orqali ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlaydi, axloq orqali jamiyatni tartibga soladi, madaniy ong orqali esa ijtimoiy haqiqatni angelaydi. Shu jihatdan nutq madaniyati va muloqot odobi - bu insoniyatning o'zini anglash jarayonining oliy bosqichidir.

Xulosa. Germetik-gnoseologik falsafa, muloqot jarayonida boshqa shaxsning nuqtai nazarini qabul qilish va tushunishga yordam beruvchi tamoyillarni taklif etadi. Bu esa, o'z navbatida, tafakkurni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan muhim ko'nikmalarni shakllantiradi. Muloqot me'zonlari,

ya'ni samimiylik, ochiqlik va hurmat kabi omillar, muloqot jarayonini yanada samarali va mazmunli qiladi. germetik yondashuv orqali muloqotning sifatini oshirish va tafakkurni

rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Bu yondashuv, nafaqat ta'lim jarayonida, balki ijtimoiy hayotda ham muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Narkulov S.D. Mustaqillik davrida O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishi va ijtimoiy ongdagi o'zgarishlar. - Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2018. - B.12.
2. Egamberdiyev A.A. O'zbekiston sharoitida yoshlarda innovatsion tafakkur shakllanishining ijtimoiy-falsafiy muammolari. - Toshkent: AndDU, 2019. - B.8.
3. Sunatov D.H. Madaniy makon va axloqiy ong dialektik aloqadorligining falsafiy-konseptual tahlili. - Samarqand: QDU, 2022. - B.9.
4. Выготский, Л. С. Мышление и речь. - Москва: Госиздат, 1934. - 324 б. (б. 54–59).
5. Cassirer, E. Philosophie der symbolischen Formen. Bd. 1. - Berlin: Bruno Cassirer, 1923. - 346 S. (S. 32).
6. Heidegger, M. Unterwegs zur Sprache. - Pfullingen: Neske, 1959. - 260 S. (S. 217–221).
7. Chomsky, N. Language and Mind. - New York: Harcourt, 1968. - 156 p. (p. 73).
8. Erkinov A. Alisher Navoiy "Xamsa"si talqinining XV–XX asr manbalari: Filol. fan. dokt. ... dis. – Toshkent: Akademiya, 1998. – 326 b.